



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI**

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 616.441-007-082

**OROL BO‘YI MINTAQASIDA QALQONSIMON BEZ PAPILLYAR SARATONLARINING
PATOMORFOLOGIYASI**



Rajapov A.A.

Email: Odilbekrajapov333@gmail.com

Karimov R.X.

Email: r.karimov.86@mail.ru

ORCID-0009-0009-0325-2709

URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

**ПАТОМОРФОЛОГИЯ ПАПИЛЛЯРНЫХ РАКОВ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ В
ПРИАРАЛЬСКОМ РЕГИОНЕ**

Rajapov A.A.

Email: Odilbekrajapov333@gmail.com

Karimov R.X.

Email: r.karimov.86@mail.ru

ORCID-0009-0009-0325-2709

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ

**PATHOMORPHOLOGY OF PAPILLARY THYROID CANCERS IN THE ARAL SEA
REGION**

Rajapov A.A.

Email: Odilbekrajapov333@gmail.com

Karimov R.X.

Email: r.karimov.86@mail.ru

ORCID-0009-0009-0325-2709

URGANCH STATE MEDICAL INSTITUTE

Rezyume: Papillary karsinomalarining juda ko‘plab turlari bir biriga nisbatan teksturasining xil darajadagi shoxlanishi, struktur birliklarini turli tumanligi morfologik tekshirishlarda juda turli tuman bahs munozaralarni vujudga keltirib, davolash taktikasini keskin o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Aynan ushbu tadqiqotimizda qalqonsimon bezning papillary turlarini gistomorfologik turlari haqida batafsil maxlumotlarni son va sifatli ko‘rsatkichlarini keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qalqonsimon bez karsinomi, patogistologiya, endokrin o‘smalar, papillary, skleroz.

Резюме: Многие виды папиллярных карцином имеют различный уровень ветвления своего строения, а разная помутнение структурных единиц может вызвать массу споров при морфологическом исследовании и привести к резкой смене лечебной тактики. Именно в этом исследовании были даны подробные сведения о гистоморфологических типах папиллярных типов щитовидной железы и их количественных и качественных показателях.

Ключевые слова: рак щитовидной железы, патогистология, эндокринные опухоли, папиллярный, склероз.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Abstract: Many types of papillary carcinomas have different levels of branching in their structure, and different clouding of structural units can cause a lot of controversy during morphological examination and lead to a sharp change in treatment tactics. It was in this study that detailed information was given on the histomorphological types of papillary types of the thyroid gland and their quantitative and qualitative indicators.

Key words: thyroid cancer, pathohistology, endocrine tumors, papillary, sclerosis.

Mavzuning dolzarbliligi. Orol bo'yidagi mintaqa ekologik jihatdan muammoli hudud hisoblanadi. Bu yerda qalqonsimon bez kasalliklarining o'sishi, jumladan, papillyar saratonlarining ko'payishi kuzatilmoqda. Tireoid o'smalari JSSV bo'yicha oxirgi yillardagi ilmiy yutuqlarga asoslangan va bunda qalqonsimon bez o'smalarining konserogenezi molekular-genetik ko'rsatkichlarining o'ziga xosligi bilan tasdiqlangan. Ushbu maqola mazkur kasalliklarning patomorfologiyasi va ularning ekologik omillarga bog'liqligini ko'rib chiqadi. Qalqonsimon bez xavfli o'smaldarining quyidagi formalari faq qilinadi: papillyar, follikulyar, medullyar (onkotsitar) va kamdifferensiiallangan anaplastik karsinomalar.


Maqsad: Qalqonsimon bez o'smalarining morfologik ko'rsatkichlarini o'ziga xos jihatlari va aniqlangan o'zgarishlarni bir-biridan farqini aniqlash.

Material va usullar: Xorazm viloyatida 5 yil davomida jarrohlik usulida olingan Qalqonsimon bez o'smasi tashkil qildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi: Qalqonsimon bezning papillyar karsinoma orasida nisbatan ko'p uchraydigan follikulyar varianti bo'lib, uning gistologik tuzilishida har xil kattalikdagi follikulalar farq qilinadi. Follikulalarning bo'shliqlari yiriklari ichida har xil kattalikdagi so'rg'ichlar paydo bo'lganligi kuzatiladi (1-rasm). Ulardagi rak hujayralari prizmatik shaklda bo'lib, yadrolari kuchli giperxromaziya holatidagi aniqlanadi. Nisbatan mayda follikulalar bo'shlig'ida och rangli kolloid modda mavjudligi kuzatiladi.

Papillyarnaya karsinomaning kam uchraydigan varianti papillyar mikrokarsinomadir. Ushbu formasida so'rg'ichlar juda mayda, eng katta so'rg'ich 1smgacha bo'radi. Papillyar karsinomaning ushbu formasi asosan yosh bolalarda uchraydi. Bizning materialimizda ham mikroso'rg'ichli karsinoma 5 yil davomida bor-yo'g'i 3 ta holatda aniqlandi, bular ham asosan yosh bolalar bo'lib chiqdi. Papillyar mikrokarsinoma mikroskopik jihatdan mayda-mayda, har xil tuzilishdagi so'rg'ichlardan iboratligi, so'rg'ichlarning stromasi yosh va kam differensiiallangan biriktiruvchi to'qima hujayralariga boy, ular betartib joylashganligi, qon tomirlari kamligi aniqlanadi. Mikroso'rg'ichlar yuzasi ustunsimon bir qator bo'lib joylashgan, asosan giperxromli, sitoplazmasi kam, bo'yalishi bo'yicha yadroning gematoksilinli bo'yog'iga qo'shilib ketganligi aniqlanadi.

Papillyar karsinomaning onkotsitar varianti juda kam uchraydi, bizning materialimizda ham 5 yil davomida bor-yo'g'i 2-ta holatda aniqlandi, unda kasallarning bittasi ayol, ikkinchisi erkak, yoshlari 56 va 64 yosh tashkil qildi. Onkotsitar karsinomaning mikroskopi jihatdan o'rganilganda aniqlandiki, uning so'rg'ichlari bir-biriga zich joylashganligi, rak hujayralarining bo'yi balandligi, eniga nisbatan 2-3 barobarni tashkil qilishi aniqlanadi.




1-rasm. Papillyar karsinomaning follikulyar varianti, har xil kattalikdagi follikulalardan va ulardagi so‘rg‘ichlardan iborat. Bo‘yoq: G-E. Kat: 10x10.

Papillyar karsinomaning sklerozlangan varianti bizning materialimizda asosan ayollarda uchraganligi, anamnezida disgormonfl kasalliklar mavjudligi, ayrim ayollarda Ridel tireoiditi mavjud bo‘lib, bez tashqi ko‘rinishidan toshday qattiqligi kuzatildan. O‘smanni mikroskopik o‘rganilganda ma‘lum bo‘ldiki, tuzilishi tarmoqlangan daraxt shoxlariga o‘xshaganligi, ustuni va shoxlari stromasida kuchli darajadagi qo‘pol tuzilishga ega bo‘lgan, gialinozlashgan biriktiruvchi to‘qimadan tashkil topganligi aniqlanadi (2-rasm). O‘smaning o‘zagi keng tarmoqlangan bo‘lib, tarmoqli so‘rg‘ichlari har xil kattalikdaligi, ularning orasida va yuzasida kuchli giperxromaziyalashgan rak hujayralari qoplaganligi kuzatiladi.


Sklerozlangan papillyar karsinoma to‘qimasi mikroskopning katta obyektivida o‘rganilganda aniqlanadiki, o‘sma stromasi xaqiqatan ham qo‘pol tolali biriktiruvchi to‘qimadan iboratligi aniqlanadi. Stromasidagi sklerozlangan biriktiruvchi to‘qima tarkibida har xil yo‘nalishda joylashgan fibromatoz tolmlar mavjudligi, aksariyat sohalarida gialinozlashganligi va tarkibida biriktiruvchi to‘qima hujayralari kamligi va ular strmaning chetki qismlarida joylashganligi aniqlanadi. So‘rg‘ichlar yuzasidagi rak hujayralarining aksariyati ko‘chib tushganligi, qolganlari esa yassilanib, o‘lchami kichiklashganligi kuzatiladi.

Papillyar karsinomaning kribroz-morulyar varianti juda kam uchraydigan formasi bo‘lib, ichagida oilaviy adenomatozli polipozi bor kasallarda uchraydi. Ushbu o‘sma klinik-anamnestik ma‘lumotlar asosida kasallarning qalqonsimon bezida bir-nechta biriktiruvchi to‘qimali parda bilan o‘ralgan holdagi o‘smalar ko‘rinishida aniqlangan. Gistologik jihatdan o‘sma to‘qimasida kribroz va morulyar tuzilmalar paydo bo‘lganligi, yana bir o‘ziga xosligi rak hujayralarining yadrolari o‘ziga xos tuzilishga kirganligi, ya‘ni polimorf bo‘lib, har xil kattalikdagi gematoksilinli yirik va mayda yadrolarni paydo qilganligi aniqlanadi.




2-rasm. Papillyar karsinomaning sklerozlangan varianti, stromasi dag‘al gomogen tolali, gialinozlashgan biriktiruvchi to‘qimadan iborat (1). Bo‘yoq: G-E. Kat: 10x10.

O‘sma tarkibida har xil tuzilishga ega bo‘lgan yacheykalar paydo bo‘lganligi, ularning bo‘shlig‘ida konsentratsiyalangan kolloid psammomaga o‘xshaganligi kuzatiladi. Solidli-trabekulyar karsinoma qalqonsimon bez papillyar karsinomasining odatiy formasi bo‘lib, unda solidli, ya‘ni rak hujayralarining to‘plamlari va trabekulyar, ya‘ni hujayralarning ustunsimon tuzilishga ega bo‘lib joylanishi aniqlanadi. Qalqonsimon bez papillyar karsinoma tarkibida to‘qima tuzilmalari, jumladan rakga xos so‘rg‘ichlar va yacheykalar metaplaziyaga uchrasa cho‘zinchoq shakldagi so‘rg‘ichlar va rak hujayralari paydo bo‘ladi va uni veretenhujayrali karsinoma deb nomlanadi. Ushbu variantda karsinoma to‘qimasida aniq gistotopografik tuzilmalar aniqlanmaydi, shu bilan birga karsinoma to‘qimasida qon quyilish o‘choqlari va gemosiderin pigmentining to‘planganligi aniqlanadi. Vereten hujayrali qalqonsimon bez karsinoma kamdifferensiallangan karsinomaga o‘xshab ketadi, lekin undan farq qiladigan belgilari, o‘sma to‘qimasida nekroz va mitoz figuralari aniqlanmaydi. Qalqonsimon bezda paydo bo‘lgan papillyar karsinomaning ochhujayrali varianti odatda papillyar karsinoma tarkibida oksifil-hujayrali o‘choqlar paydo bo‘lishi bilan tarflanadi. Gistologik jihatdan rak hujayralar sitoplazmasining keskin kattalashishi va vaukollanishi yuz beradi, o‘sma to‘qimasida limfoid infiltratsiya paydo bo‘ladi. Ushbu o‘sma varianti ko‘pincha Xashimoto tireoiditi bilan birga uchraydi. Ushbu yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qalqonsimon bez papillyar karsinomasining adabiyotlarda yozib o‘tilgan variantlaridan tashqari bizning materialimizda yana quyidagi variantlar aniqlandi. Papillyar karsinomaning so‘rg‘ichlari kalta va yo‘g‘onligi, bir-biri bilan tutashganligi, yuzasidagi rak hujayralari bir qatorli, ko‘p qatorli ko‘rinishda joylashganligi, yadrolari nisbatan mayda va giperxromli bo‘yalganligi kuzatildi. (3-rasm). Qalqonsimon bez papillyar karsinomasining yana bir varianti sifatida bizning materialimizda aniqlandiki, bunda karsinoma so‘rg‘ichlarining stromasi zich holda va kengaygan variantda limfoid hujayralar bilan infiltratsiyalanganligi aniqlandi. Bunda limfoid hujayralar tarqoq holda va ayrim sohalarida to‘plangan holda joylashganligi kuzatildi. Ushbu limfoid infiltratsiya tarkibida psammoma tanachalari paydo bo‘lganligi kuzatiladi. (4-rasm). Stromadagi limfoid hujayralar so‘rg‘ichlar yuzasidagi rak hujayralari orasiga simbioz shaklida kirib borganligi aniqlanadi. Rak hujayralari asosan bir qatorli, ayrim sohalarida ko‘p qatorli ko‘rinishda joylashganligi, ularning yadrolari giperxromli darajada to‘q bo‘yalganligi, sitoplazmasi kamligi aniqlanadi.



3-rasm. Papillyar karsinomaning stromasi faollashgan varianti bo‘lib, proliferatsiya o‘choqlari aniqlanadi (1). Bo‘yoq: G-E. Kat: 10x40.



4-rasm. Papillyar karsinomaning limfod infiltratsiya bilan birga kelishi. Bo‘yoq: G-E. Kat: 10x40.

Papillyar karsinomaning anaplastik variantida o‘sma to‘qimasida juda kuchli polimorfizm, atipizm va ko‘p sonli mitozlar aniqlanadi. Ushbu o‘smaning gistologik tuzilishida rak hujayralari har xil formadagi karsinomalarga, har xil darajadagi polimorfizmga uchranganligi kuzatiladi va hujayralar tarkibida ham dumaloq, ham cho‘zinchoq, ham polimorf hujayralar mavjudligi aniqlanadi. Polimorf tuzilishga ega bo‘lgan karsinoma hujayralari so‘rg‘ichlar yuzasidan stromasiga tarqalganligi sababli so‘rg‘ichlarning gistotopografiyasi o‘zgarganligi, bir-biri bilan qo‘shilib ketganligi aniqlanadi.

Xulosa: Qalqonsimon bezning papillyar karsinomasi gistotopografik jihatdan bir qancha variantlarda uchrashi va ularning har bir varianti o‘ziga xos gistologik tuzilishga ega bo‘lishi ularning biologik, morfogenetik, invazivlik va metastazlanish xususiyatlariga bog‘liq. Ularning gistologik asosida so‘rg‘ichsimon tuzilish yotadi, so‘rg‘ichlarining rivojlanganlik darajasi va qanday tarkibga egaligi bo‘yicha oddiy kam to‘qima so‘rg‘ich, limfoid infiltratsiyali so‘rg‘ich, miksamatozli



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

so'rg'ich, sklerozlangan so'rg'ich kabi variantlari uchrashi tasdiqlangan. Bizning materialimizda ilmiy adabiyotlarda ko'rsatib o'tilgan gistologik variantlaridan tashqari stromasi faollashgan, stromasi limfomatozli, va anaplastik variantlari mavjudligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dell'Aquila M, Granitto A, Martini M, Capodimonti S, Cocomazzi A, Musarra T, Fiorentino V, Pontecorvi A, Lombardi CP, Fadda G, Pantanowitz L, Larocca LM, Rossi ED. PD-L1 and thyroid cytology: A possible diagnostic and prognostic marker. //Cancer Cytopathol. 2020 Mar;128(3):177-189.
2. Caulley L, Eskander A, Yang W, Auh E, Zafereo M, Stack BC Jr, Randolph G, Davies L. Trends in Diagnosis of Noninvasive Follicular Thyroid Neoplasm With Papillarylike Nuclear Features and Total Thyroidectomies for Patients With Papillary Thyroid Neoplasms. //JAMA Otolaryngol Head Neck Surg. 2022 Feb 1;148(2):99-106.
3. French B, Hattier G, Mardekian SK. Utility of Tumor Capsule Thickness as a Predictor of Invasion in Encapsulated Follicular Variant of Papillary Thyroid Carcinoma and a Diagnostic Tool for Noninvasive Follicular Thyroid Neoplasm With Papillary-Like Nuclear Features.// Int J Surg Pathol. 2020 Feb;28(1):13-19.
4. Yang H, Chen L, Cheng Z, Yang M, Wang J, Lin C, Wang Y, Huang L, Chen Y, Peng S, Ke Z, Li W. Deep learning-based six-type classifier for lung cancer and mimics from histopathological whole slide images: a retrospective study. //BMC Med. 2021 Mar 29;19(1):80.
5. Boursier L, Clerc Urmes I, Garon J, Klein M, Demarquet L. Ultrasound and cytological characteristics of non-invasive follicular thyroid neoplasm with papillary-like nuclear features compared to papillary carcinomas. //Ann Endocrinol (Paris). 2020 Feb;81(1):28-33.
6. Ражапов, А. А. (2024). ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗ МЕДУЛЛЯР КАРЦИНОМАЛАРИНИНГ ПАТОЛОГОАНАТОМИК ТАВСИФИ. *Журнал гуманитарных и естественных наук*, (12), 73-75.
7. Раджапов, А. А. (2024). МОРФОМЕТРИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЗЛОКАЧЕСТВЕННЫХ ОПУХОЛЕЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ. *Международный журнал научной педиатрии*, 3(6), 623-626.
8. Rajapov, A. A. (2023). Morphometric Changes of Thyroid Cancer in the Regions Along the Aral Sea. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(5), 994-997.